O`z mavqei va tutgan o`rni jihatidan xalqaro maydonda katta e`tibor va nufuzga ega bo`lgan Markaziy Osiyodagi samoniylar, qoraxoniylar, g`aznaviylar, saljqiylar va xorazm shoxlar davlatlari davrida mamlakatda davlat hokimniyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barkororlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o`sdi. Buxaro, Samarkand, Urganch, Qiet, Kesh, naqshab, G'azna, Panjikent, Binokent, Shosh, Termiz, Kuva, Kabadien, Boykent va boshqa shaxarlar savdo-tijorat, xunarmandchilik va madaniyat markazlari sifatida dong taratganlar. Somoniylar poytaxti Buxoro duneda ikkinchi Makka hisoblangan. Xullas, arablar istilosidan so`ng IX-XII asrlarda mahalliy hukmdorlar boshchiligida vujudga kelgan markazlashgan davlatlar davrida mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-madaniy qulay vaziyat shunday muhitni yaratdiki, natijada bu mintaqadan o`z qobiliyatlari, erkin va betakror ijodlari, ulkan madaniy-ma`rifiy durdonalari bilan jahon madaniyati tsvilizatsiyasi xazinasiga bebaxo hissa qo`shgan ajoyib allomalar, fan va madaniyat sohiblari, olimu donishmandlar, mumtoz adabiet daholari kamolotga etdilar.

Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) asli Xiva shaxridan bo`lib u dastlabki ta`limni xususiy muallimdan oldi va sungra Marvda madrasada uqidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o`g`li Ma`mun xalifalik taxtiga o`tirgach (813) Muxammad Muso al-Xorzmiyni o`zi bilan birga Bagdodga olib ketdi va u erda tashkil etilgan ″Boytun-ul-Hikma″ (″Donishmandlar uyi″) ga boshliq etib tayinladi.

Xorazmiy matematika, geogmetriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshka fanlar sohasida barakali ijod qildi. Uning ″Al-Jabr Val Muqobala″) (″Tenglamalar va qarashlantirish″), ″Xisob Al-Hind) (″Hind hisobi), ″Kitob surat al-Arz″ (″Er surati hakida kitobe) ″Kitob at tarixe(″tarix kitobie), ″Kitob al amal Bil Usturlabat) (″Usturlab ″ bilan ishlash hakida kitob) (″Usturlob″-yulduzlarning harakati va halotini kuzatadigan asbob) kabi asarlari ilm-fanda olimga jahanshumul shuhrat keltirdi.

Xorazmiy ″Al-jabr″ ″Al-muqabala″ asari bilan matematika tarixida birinchi bo`lib algebra faniga asos soldi.

Olimning ″Kitob at -tariz″ (″Tarix kitobie) asarida Xuroson, Kichik Osiyo va Movaraunnaxrning VIII-IX asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq ma`lumotlar o`z ifodasini topgan.

Xorazmiyning ″Zij″ (″Astronomik jadval″), ″Kuesh saoti hakida risola″ asarlari falakiettunoshlik fanining rivojlanish traqqietiga katta hissa qushdi.

Ona tuprogimiz, O`zbekiston nomini fakr va g`urur his-tuyg`usi bilan uzoq-uzoq avlodlarga ko`z-ko`z qilishga arzugulik ulug` siymo va allomalardan biri Axmad Farg`aniydir. Taxmin qilinishiga u 861 yilda vafot etgan. Axmad Farg`oniy matematika, geografiya, astronomiya, tarix soxolarida ijod etib, bu fanlarning rivojlanishiga o`zining salmoqli hissasini ko`shdi. U musulman Sharkida ″Xisob″ ya`ni″matematika″ laqobini olgan. Shunday bo`lsada u astronomiya, geografiya soxalaridagi ishlari bilan shuxrat kozangan. Uning bu fan sohalaridagi qilgan ishlari XI asrlardaeq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan va unidan “arb olimlari o`zlarining ilmiy izlanishlarida keng foydalandilar. Axmad Farg`oniy o`z asarlarini arab tilida ezgan va shuning uchun “arb olimlari uni birinchi arab astronomi deb hisoblaydilar.

Axmad Farg`oniyning olim Muxammad ibn Muso bilan, ulug` mutafakkir olim Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko`rsatgan ″Baytun-Hiqma″ bilan bog`likdir. U Bag`dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan qatnashdi.

Axmad Farg`oniyning 812 yilda Quesh tutilishi oldidan bashorat qilishi, Erning dumoloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuxrat keltirdi. Keynroq Misrda yashagan chogida nil daresi suvini o`lchaydigan asbob yasagan.

Axmad Farg`oniyning falakietga oid yirik ilmi asarlaridan biri ″Sanoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitobdir″ Bu asar ″Astronomiya negizlari″ deb ham yuritiladi.
Ahmad Farg`oniyning asarlari XII asrdieq lotin tiliga tarjima qilingan.

Markaziy Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq falsafasining otasi Abu nasr Muxammad ibn Muxammad Farabiydir. U 873 yilda farob yaqinidagi Vasij shaxarchasidja tavallud ko`rgan va 951 yili Damashqda vafot etgan.

Farobiyning falsafa, tilshunoslik, mantik, rieziet, musiqa nazariyasi borasida olib borgan ilmiy ishlari unga katta shuxrat keltirdi va dune fani tarixida nomiga bqiylik baxsh etdi.

Farobiy boshlangash saboqni farabda oldi. So`ngra Shosh, Samarkand, Buxaro va Eronning bir necha shaxarlarida bo`lib, o`z bilimlarini mukammmallashtirdi va turli tillarni o`rgandi. Sung Bag`dodga kelib o`z bilimlarini yanada chuqurlashtirdi.

Bog`dod va Damashq shaxarlarida yashab o`z ilmiy darajasini oshirgan, deyarli fanning barcha sohalarini egallab 160 dan ortiq asarlar ijod qilgan. U ezgan ″Aristotel″ (Arastu) ning ″Metafizika″ asari maqsadlari hakida, ″Tirik mavjudot a`zolari hakida″, ″Musika kitobi″ ″Baxt-saodatga erushiv hakida″ ″Siesat al-Madoniya″(″Shaxarlar ustida siyosat yurgizish″, ″Fozil odamlar shaxri″ ″Masalalar moxiyati″ ″Konunlar xakida kitob, ″Tafakkur yuritish mazmuni haqida″, ″Mantiqa kirish haqida kitob″ ″falsafaning mohiyati haqida kitob″ va boshqalar buyuk olimning ilm va dunekarash doirasining deqies darajada kenglgi va chuqurligidan dalolat beradi.

Farobiy ellin madaniyati donishmandligshining xadsiz bilimdoni edi. Agar ilm-fan rivojidagi o`zining qo`shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel` §birinchi muallim″ unvoniga sazovar bo`lgan bo`lsa, Farobiy ellin donishmandligini, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqietiga katta hissa qushganligi uchun ″Al-Muallim as-Soniy″″Ikkinchi muallim ″Sharq Aristoteli degan mo`tabar unvon oldi.

Forobiy “Ilmlarning kelib chiqishi haqida″ ″Ilmlarning tasnifi haqida″ va boshqa risolalarida o`sha davrda ma`lum bo`lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi.

Sharqning buyuk ollamolaridan, qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Xusayn in Abdullox ibn Sinodir. U sharq fan olamida ″Shayx ul-rais″ taxallusini olgan. Evropada bu olim Avitsena nomi bilan ma`lum. Ibn Sino 980 yilda Buxaro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tug`ilgan.

Ibn Sinoning ilmiy qarashlari ikki yo`nalishda: tibbiet va falsafiy sohalarida rivojlandi. 17 eshidaeq olim sifatida shakllandi, katta nufuzli shifokor bo`lib etishdi. Ibn Sino saroyga taklif qilindi va bu erda bemor etgan somoniylarning amiri Nux ibn Mansurni davoladi. Buning evaziga Ibn Sinoga somoniylar saroyiga joylashgan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berildi.

1002 yilda Ibn Sino Xorazmga boradi va Urganichdagi Ma`mun akademiyasida faollik kursatadi. U erda foylasuf Abusaxl Masahiy, atoqli tabib Abulxayr Xammor, XI asrning eng yirik olimi, qomusiy bilimlar sohibi Abu Rayxon Beruniylar bor edi.

Xorazmni Maxmud Gaznaviy egallagach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u erdan Ray, Kazvin shaxarlariga o`tib, so`ng Xamadon xukimdori Shams ad-Davla xizmatiga kiradi. Umirining oxirgi yillarini Isfaxonda o`tkazgan.

Ibn Sinoning shox asarlaridan biri, tibbietga, bag`ishlangan ″Al qonun fi-t-tib″ (″Tib qomunlari″) asaridir. Bu asar o`ziga xos tibbiy qomusnoma bo`lib, besh qismdan iborat. Kitob

XIIIasrdieq lotin, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu kitob to XVIII asrning oxirlariga qadar “arbiy Evropaning tibbiy o`quv yurtlarida asosiy o`quv qullanmosi bo`lib xizmat qilgan.

Ibn Sinoning yana bir qomusiy asari ″kitob ush-shifa″(″Davolash kitobi″) bulib, u 18 qismdan iborat. Kitob falsafaning turli sohalariga, mantiqqa, matematika, geometriya, metafizika bilan bog`lik masalalarga bog`ishlangan.

Urta asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma`mun akademiyasining porloq yulduzlaridan biri, buyuk olim va mutafakkir Abu Rayxon ibn Axmad Beruniydir. U 973 shaxridan 120 km naridagi qadimgi Kat (hozirgi Beruniy) shaxri yaqinida tug`ilgan. Dastlabki ta`limni Urganichda olgan. Taqdir taqozasi bilan Sharqning ko`pgina shaxarlarida bo`lgan. Ancha vaqt Gurgonda turgan, sungra Ma`mun akademiyasida katta ilmiy ish olib borgan. Maxmud “aznaviy Xorezmni egallagach (1017y). Beruniy o`z ilmiy faoliyatini “azna shaxrida davom ettirgan. U Maxmud “aznaviy bilan birgalikda Xindistonda bir necha bor safarda bo`lgan. Ulug` mutafakkir 1048 yilda “azna shaxrida vafot etgan.

Bernuniy o`zining 45 dan ortiq falakietga oid asarlarida Kopernikdan qariyb bes asr ilgari olimning markazi Er emas, Kueshdir degan xulosa chikardi. Erning Kuesh atrifida aylanishini birinchi bor o`rtaga qo`ydi.

IX-XII asrlarda diniy bilimlar ham keng rivojlandi.

XIV-XV asrlarda, ya`ni Temur va temuriylar davrida O`rta Osiyoda ilmiy-madaniy haetning yana da churkirab rivojlanganligini ko`ramiz. Amir Temur tibbiet, matematika, astronomiya, tarix, adabiet, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e`tibor berdi. Temur davrida Samarkandda Bibixonim masjidi, Shoxizinda maqbarasi, Shaxrisabzda Oqsaroy va maqbaralar, turkistonda Axmad Yassaviy mabqarasi, Toshkentda Zangiota maqbarasi barpo etildi.

Ulug`bek davrida fan va madaniyatga homiylik qilish yanada avj oldi. Ulug`bek Samarkand, Buxaro, Gijduvon va Shaxrisabzda masjid va madrasalar qurdirdi. Tarixiy fanlar soxasida ham ko`pgigna ishlar qilindi. Bu davrda adabiet soxasida ham samarali ishlar qilindi. Bu jaraenda shoir va davlat arbobi bo`lgan Alisher Navoiynin xizmatlari katta bo`ldi. Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy kabilar o`lmas asarlar yaratdilar Kamoloddin Behzodning rassomlik faoliyati rivojlandi.

**TAYaNCh TUShUNChALAR:**

Somoniylar, Qoraxoniylar, ″Bayt ul hikma″, mashhur allomalar, mug`ullar bosqini davridagi madaniy inqiroz, Amir Temur davrida fan va madaniyat. Ulug`bek, Navoiy.

**ADABIETLAR:**

1. Karimov I.A. Erishilgan Yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim. G`Xalq so`ziG` 2006 11 fevral`.
2.I.Karimov G`Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edilarG`. T.2005
3. O`zbekiston mustaqil taraqiet yo`lida. T. 2004
4. Gulomov X.G. Tatibaev A.S. “Tsentarl`naya Aziya i mirovaya istoriya”. T. 2004.
5. Tarix ortga qaytmaydi. (tuplam) T. 2004
6. Istoriya Uzbekistana T. 2004
7. Sharipov R.X. Muxiddinova F. “O`zbekiston halqining siesiy-huquqiy ta`limotlari tarixidan. (XIX asr oxirlari XX asr boshlari) T. 2004
8. SD. “O`zbekiston-2000” multimedia-ma`lumotnomasi
9. SD. “Barkamol avlod orzusi” 5 fil`m
10. SD. “Amir Temur. Shaxsiyat. Davlat. Reneseans” Multimediya-komusi
11. SD. “Tsivilizatsiyaning yaratilishi”
12. SD. “Al-Farg`oniy, Al-Beruniy”
13. Buyuk siymolar, allomalar(1,2 kitob) T,1995,1996
14. Nizomulmulk. Siesatnoma. T. 1997
15. Axmedov B. Tarixdon saboqlar, T.1994
16. O`zbekiston tarixi,1997
17. Usmanov Q., Burxonova S. O`zbekstan: 15 bunedkorlik yillari Tashkent 2006.

**6-MAVZU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA UZBEK DAVLATChILIGI**

REJA:

1. XIV asr o`rtalari va ikkinchi yarmida Mavarounnaxrdagi vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi.

2. Amir Temur davlatining ichki va tashki siyosati

3. Temur tuzuklari va uning ahamiyati.

4. Mavarounnaxr va Xuroson temuriylar davrida.

Turkistonning buyuk farzandi Amir Temurning siesiy faoliyatiga va harbiy yurishlariga bog`ishlang`an adabietlar juda ko`p, XIV-XV arslardagi tarixiy asrlar orasida Sharafuddin Ali Yazdiyga tegishli Zafarnoma alohida urin egollaydi. Yazdiy Temur xaetining sunggi yillarida uning bosh devonida xizmatda bo`lib, Temurning Kichik Osiyo mamlakatlariga bo`lgan yurishlarida qatnashgan.

Sovetlar davridagi tarixiy asarlarda Temurga va uning tarixda tutgan urniga keskin salbiy baho berildi.

Amir Temurning siesiy maydonda paydo bulishi XIV asrning 60 yillaridan boshlandi. Bu davrda, ya`ni XIV asrning o`rtalarida Chag`atoy ulusi ikki kismga mavarounnaxr va Mug`ulistong`a bulinib ketgan edi. Har ikkala xududda ha siesiy parokandalik kuchayib chingizshiy shaxzodalar urtasida xokimiyat uchun kurali avj olgan edi. Chig`atoy ulusining har ikkala kismi mayda mustaqil beklarga bo`linib ketdi. Ulusning “arbiy kismida hokimiyatni asosan turk-mug`ul qabila boshliqlari egalladigan. Misalan, Kesh shaxri va viloyat amir Xoji Barlos, Xo`jand viloyati Boyazid jaloir, Balx viloyati Amir Qozag`onining nabirasi Amir Xusayn ko`liga o`tdi. Ana shunday bir qiyin siesiy vaziyatda Sohibqiron Amir Temur tarix saxnasiga chiqdi.

Amir Temur 1336 yil 8 aprelda Keshga qarashli Xo`ja Ilg`or (hozirgi Yakkabog` rayoni) qishlog`ida barlos beklaridan biri Amir Tarag`ay ibn Barqal oilasida dunega keldi.

Temurning bolaligi va o`spirinlik yillari Keshda o`tdi.

1350-1360 yillar oralig`ida Amir Temur Temur unchalik katta bo`lmagan otliqlar, yaxshi qurallangan kishilar guruhini tuzdi.

1360-1361 yillarda Mo`g`uliston hukimdori hoqon Tug`luq Temur hech qanday qarashiliqsiz Movarunnaxr erlariga bostirib kiriganida bu erdagi mahalliy beklar, jumladan, kesh hokimi Hoji Barlos hom Xurosonga qochadi. Vatanvarlik, milliy g`urur va iftixor hissieti qalbida jo`sh urgan esh Temur o`z ona tuprog`ini dushman qo`liga bermaslik uchun Tug`liq Temur xizmatiga kirishga majbur buladi va bu xizmati evaziga Kesh viloyati erlariga hokimlik qilish uchun erliq oladi.

Tug`luq Temur 1361 yilda Movarunnaxrni boshqarishni o`g`li Iles xo`jaga topshirganida Temur Iles xo`jaga xizmat qilishdan bosh tortadi va o`sha vaqtda Balx hokimi bo`lib turgan Amir Xusayn bilan ittifoq tuzib, mo`g`ullarga qarshi kurash Iles xo`ja boshlaydi.

1365 yilda qo`shinlari bilan ittifoqdoshlar Amir Xusayn va Amir Temur qo`shinlari o`rtasida Toshkent va Chinoz oralig`ida mashxur loy jongi bo`lib utdi va bu jangda ittiioqdoshlar mag`lubiyatga uchraydi.

Lekin mo`g`illar Samarkand shahrida sarbardorlar qarishiligiga tuch kelib Movaraunnahrni tark etib ketishga majbur bo`ladilar.

Bu davrda Movaraunnaxrda ijtimoiy-ijtimoiy ahvol og`irlanib, mamlakatda o`zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat barpo etish tarixiy zaruryatiga aylanib qolgan edi. Buni chuqur anglab etgan Amir Temur Mavrunnaxr hukimdori Amir Husaynga qarshi kurash olib borib 1370 yilda Movaraunnaxr taxtini egalashga muvaffiq bo`ldi.

Temur markazlashgan davlatni barpo etish maqsadida Kesh shahridan Samarkandga ko`chib o`tib, uni Mavoraunnxrning poytaxtiga aylantiradi va jangovor milliy qo`shin to`zadi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o`z qo`shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohatni amolga oshirishga ayniqsa e`tibor qaratadi. U qo`shinlarini o`nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo`lgan.

Temur Movaraunnaxr taxtni egallagan vaqtdan boshlab, o`z davlati chegeralarini kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudare va Sirdarie oralig`idagi erlarni o`z tasarrufiga oladi.

1388 yilda Xorazmni bo`ysintiradi.

Temur o`zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398) yurishlari davomida Eron va Xurosonni o`z tasarrufiga oladi.

Temur Movaraunnaxrning to`la mustakilligiga erishishi uchun mo`g`ul xonlari havfini tugatish zarurligini tushindi va 1389 yilning baxoridax Sirdarie bo`yidagi Zarnuq tumanida, 1391 yilning ezida Samara shahri bilan Chistopol` o`rtasidagi Qunduzga degan joyda, 1395 yil 15 aprelda Kavkazdagi

Terek daresi bo`yida Oltin O`rda xoni To`xtamish bilan uch marta jang qilib uni mag`lubiyatga uchratdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistolnga qilgan yurishda Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Baytun shaxarlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag`lubiyatga uchratdi.

Temur 1404 yilning oxrida katta qo`shin bilan Xitoy safariga otlandi. Yulda Temur betob bo`lib uning qo`shinlari 1405 yilning yanvar` oyida O`tror shaxrida to`xtaydilar va shu erda 1405 yilning 18 fevralida Amir Temur vafat etadi.

Buyuk sohibqiron Amir Temur o`zining 35 yillik hukromligi davrida markazlashgan katta davlat tuzishga muvaffaq bo`ldi.

Temur turk-mo`g`ul an`analariga amal qilgan holda o`z davlati hududlarini suyurg`ol (ulus) tariqasida in`om qilish yo`li bilan boshqargan va Movaraunnaxrdan tashqaridagi erlarini to`rt ulusiga bo`lib, farzandlariga in`om etdi.

Uluslar o`rtasida o`zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o`zi nazorat qilib turadi.

Amir Temur hukmronlik qilgan davrida davlatning markaziy ma`muriyat boshida devonbegi, arkbegi va to`rt vazir turgan.

Erga egalik shakllari-suyurg`ol erlar, vaqf erlar, jamoa erlari edi. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig`i-xiroj bo`lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo`lgan.

Amir Temur mamalakat obodchiligiga juda katta e`tibor berdi.yu Mo`g`ullar tomonidan vayron qilingandan so`ng 150 yildan keyin Samarkand qayta tiklandi. U poytaxtga aylantirilib bu erda dunenining yirik shaxarlaridan keltirilgan binokorlar, me`morlar tomanidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi.

Sohibqironning ona yurti Keshga ham katta katta diqqat-e`tibor qaratildi. Bu shaharda Oqsaroy, jome masjid, madrasalar barpo etildi. Turkiston shahrida Xoja Axmad Yassaviy maqbarasi bunied etildi.

Buxaro, Shaxrisabz, Toshkent  kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazalari sifatida rivojlanib bordi. Savdo yo`llari rivojiga, uning tinchligiga keng e`tibor berildi.

Amir Temur chet davlatlar bilan aloqani keng yo`lga quydi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo`lgan g`alabalaridan so`ng Frantsiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Bu davlatlarning hukmdorligi sohibqirion bilan siesiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o`rnatishga intilganlar. Ular sohibqiron huziriga muntazam elchilar yuborib turganlar.

Amir Temur davridla diniy ilmlar va duneviy fanlar barqaror bulgan.

Temur davridlagi ilm-fan, me`morchilik, san`at sohalari o`z davriga nisbatan o`ta darajada rivojlanib, yuksak ma`naviy boylik boylik darajasiga ko`tarildi.

Amir Temur va temuriylar davrida ezilgan tarixiy asarlar anchagina bo`lib, ular orasida Temur tuziklari buyuk jahongir haetiga va faoliyatiga bag`ishlangan asarlar ichida shuhbasiz, alohida ahamiyat kasb etadi.

Temur tuziklarining Sharq yulduzi jurnali 1989 yilda chop etgan forschadan tarjimosiga ezib bergan o`z muqaddimisida prof. Bo`riboy Ahmedov bunday deb qayd etadi Mutaxassis olimlarning (A.A.Semenov, Ch.R`e, E.G.Braun va boshqalar) so`zlariga qarag`anda, Temur tuziklari boshda turkiy tilda ezilgan va uning bir nusxasi Yaman hokimi Ja`far poshaning kutubxonasida saqlangan (Sharq yulduzi, 1989, 8 son     128 bet).

Temur tuziklari ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo`lib, unda sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai nazari baen qilindi. Bu asardan ko`plab sharq hukmdorlari o`zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqari baho berganlar.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning bolalik davridan to vafotiga kadar (1342-1405-yil  18-fevral) kechgan haeti va ijtimoiy-siesiy faoliyati, uning Movaraunnaxrda markaziy hokimniyatni qo`lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat to`zishi, Oltin O`rda xoni To`xtamishxon ustidan g`alabasi, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari baenn etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju-taxt vorislariga atalgan o`ziga xos vasiyat va pandu nasixatlaridan ibaratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-idora  egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo`shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va

boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko`rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hoqazolar xususida gap boradi.

1405 yilda Amir Temur vafotidan so`ng uning yirik davlati parchalana boshladi. Buning asosiy sababi-temuriy shahzodalarning taxt uchun o`zaro kurashlari edi. Temurning nabirasi Pirmuxammad valiahd qilib qoldirilgan bo`lsa da, ko`pgina amirlar va amoldarlar uning hukmronligini tan almadilar. Temurning boshqa bir nabirasi Halil Sultan Samarkand taxtini egalladi.

Temurning o`g`ullaridan biri Shaxrux uzoq tortishuvlardan so`ng 1409 yili temuriylar davlatining oliy hukmdori deb tan olindi. Uning dpalptining paytoxti Hiron shaxri bo`ldi. Mavorunnaxr erlarini 1409 yildan boshlab Shohruhning to`ng`ich o`g`li Mirzo O`lug`bek boshqara boshladi. Ulug`bekning hukronlik davri (1409-1449) asosan, Mavaraunnaxrda ijtimoiy-iqtisodiy haeti, ilm-fan va madaniyatining rivojlanishi bilan izohlanadi.

1447 yilda Shohruh Mirzo vafotidan so`ng Temurzodalar o`rtasida kurash boshlanib ketdi. Ulug`bekning shuhratparast ug`li o`z atasiga qarshi urush boshladi. Oqibotida 1449 yilning oktchyabr` oyi oxirlarida Ulug`bek fojiali halok bo`ldi. Bu voqeadan so`ng Temuriy shahzodalar o`rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi.

Padarkush Abdulatif 1450 yilning 8 moyida Samarkand yaqinida o`ldirildi. Bundan keyin 1451 yilning ezigacha Samarkand taxtini Mirzo Abdulla egalladi. So`ngra taxtni ko`chmanchi o`zbeklar xoni Abulxayr erdamida Abdusaid egalladi. Abusaid vafotidan so`ng Xo`rasn taxtini 1469 yildan boshlab Xusayng Bayqaro egalladi. U 1506 yilgacha hukmdorlik qildi. Uning davrida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy davlat ishlariga faol qatnashildi.

**TAYaNCh TUShUNChALAR**

Tug`luq Temur, Movaraunnaxrdagi siesiy vaziyat, Amir Temur, Loy jangi, Ilesxo`ja, Sarbadorlar, Temur davlati, xarbiy yurishlar, To`xtomish, Anqara jangi boshqaruv tizimi, Temur tuziklari temuriylar Shohruh, Ulug`bek, Abusaid o`zaro urushlar, Sudlton Xusayn Boyqaro, Navoiy.

**ADABIETLAR**

1. Karimov I.A. Erishilgan Yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim. G`Xalq so`ziG` 2006 11 fevral`.
2. I.Karimov Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamalkatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T. “O`zbekiston” 2005.
3. I.Karimov “Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edilar”. T.2005
4. Usmanov Q., Burxonova S. O`zbekstan: 15 bunedkorlik yillari Tashkent 2006.
5. Gulomov X.G. Tatibaev A.S. “Tsentarl`naya Aziya i mirovaya istoriya”. T. 2004.
6. Tarix ortga qaytmaydi. (tuplam) T. 2004
7. Istoriya Uzbekistana T. 2004
8. SD. “O`zbekiston-2000” multimedia-ma`lumotnomasi
9. SD. “Amir Temur. Shaxsiyat. Davlat. Reneseans” Multimediya-komusi
10. SD. “Tsivilizatsiyaning yaratilishi”
11. SD. “Al-Farg`oniy, Al-Beruniy”

## 7. MAVZU. TURKISTONNING XONLIKLARGA BO`LINIB KETIShI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

REJA:

1. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida Movaraunnaxrdagi ijtimoyi-siesiy ahvol. Sheyboniyyalar sulolasi xukmronligining o`rnatilishi.

2. Turkistonning o`ch xonlikka bo`linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

3. Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliklarining ijtimoyi-siesiy ahvoli.

XV asr o`rtalariga kelib temuriylar davlatining tarqoqligi kuchaydi. Bu davrda Mavarounnarning shimolida - Dashti Qipchoqda ko`chmanchi o`zbeklar davlati tashkil topdi.

XV asr mobaynida Dashti qipchok o`zbeklari bilan Temuriylar o`rtasida tuxtovsiz kurash ketdi, oqibatda XVI asr boshida bu kurash Temuriylar davlatining engilishi bilan tugadi. Dashti Kipchoqdagi kuchmanchilar davlatining asoschisi Abulxayrxon 1428 yildan 1468 yilgacha xukmronlik qildi, sung bu davlat siesiy inkirozga uchrab (parchalanib) tarkilib ketdi.

XV asrning oxirida Abulxayrning nevasi Muxammad Sheyboniy bobosining davlatini taklab, tez orada Utror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig`noq shaxarlarini bosib oldi va 1499 yilda Mavarounnaxrga jilliy xarbiy xarakatlar boshladi.

Muxammad Sheyboniyxon 1500 y. Samarqand shaxrini jangsiz egalladi.

Esh Temuriy shahzoja Zaxiriddin Muxammad Bobur Sheyboniyaxonning asosiy raqibi buldi. Bobur shaxar axolisining qarshi kuzgolonidan foydanib 1500 yilning oxirida Samarqand taxtini egallangan edi. 1501 yilning bahorida bulib utgan jangda Bobur engiladi va Samarqand ikkinchi martoba Sheyboniy kuliga utadi.

Sheyboniyxon 1505 y. Urganchni. 1507 y. may oyida Xirotni egalladi va qisqa vaqt ichida Sardaredan to Markaziy Afgonistongacha bulgan katta xudud Sheyboniyxon kuliga utdi.

Sheyboniyxonning janub tomon yurishlari Eron shoxi Ismoil 1 tomonidan tuxtatildi. 1510 yil Marvdan 24 ki joyda Ismoil 1 ning 1700 ming kishilik kushinlari kuchmanchi o`zbeklar kushinishi tor-mor keltirdi. Sheyboniyxon xaloq buldi. Natijada Xuroson va Xorazm Ismoil xukmronligiga utdi. Ismoil erdami bilan Bobur yana Samarkandni egalladi lekin Gijdivon yakinida bulgan jangda Bobur kushinlari mag`lubiyatga uchradi va nihoyat Mavarounnaxrga bulgan da`valaridan voz kechib, kichik bir otryadi bilan Xindistong`a yo`l oladi va 1525 yil Xindistonning Lahor shahrini, 1526 yil Dehli Agra shaharlarini egalladi va hozirgi Bangladesh, Pokiston, Xindistonning shimoli va Afganiston xududida Buyuk Boburiylar saltanatiga asos saldi, bu davlat XIX asrgacha (300 yil) yashadi.

Muxammad Sheyboniyxon vafotidan keyin mavaraunnaxrda markaziy xukumat ancha zamflashdi. 1512 yildan Buxoro xumkdori Ubaydulla Sulton buldi, 1534 yilda u butun markazlashgan o`zbek davlatining Oliy xukmdori etib saylandi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Sheyboniy avlodlaridan bulgan Abdullaxon 2 ning mavk`ei ancha mustaxkamlandi. U o`zbek kabilalari biklarining va musulmon ruxoniylarining erdamida 1557 yilda Buxoro taxtini kulga kiritdi. U kuchli Sheyboniylar davlatini qayta tiklashni o`z oldiga maqsad kiliyu kuyigan edi.

1583 y. Abdullaxon uzimi barcha o`zbeklarning xoni deb e`lon kildi. Bu paytga kelib Abdullaxon deyarli butun Markaziy Osiyo erlarini o`z ko`l ostiga birlashtirishga muvaffaq bulgan edi.

1595 y. Xorazm xam Abdullaxon 2 mulklariga kushib olindi.

1598 yilda Abdullaxon 2 vafot etgach uning ug`li Abdulmumin uzoq vaqt hokimiyatni saqlab qalolmadi va 1599 yilda hokimiyat boshqa sulola vakillari kuliga utdi.

Abdullaxon 2 davrida Sheyboniyxon davlatining paytaxti sifatida Buxoro mustaxkamlandi va siesiy, ma`muriy, iqtisodiy markazga aylandi. Shu davrdan boshlab mamlakat Buxoro xonligi deb atala boshlandi.

Sheyboniylar davrida hokimiyat tepasida xon turardi. Davlat bir necha viloyatlarga bulingan bulib, ularga sultonlar boshchilik kilar edi. Poytoxt Samarqand shahri edi va Abdullaxon (1533-1539) davrida Buxoroga kuchirildi.

Sheyboniylar davlati, ayniksa, Abdullaxon 2 davrida chet davlatlar bilan siesiy aloqalarini kengaytiradi.

Sheyboniylar davlatida xujalikning asosi dehkonchilik bulib, dexkonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi.

Er egaligi munosabatlari eskicha kolib, erlarning asosiy kismi avlat erlari bulib, uning egasi davlat boshligi-xondir.

Zodagonlar egallagan davlat erlarining shokllari xar xil, suyurgol, iqta, tanho va boshkalar edi. Suyurgol xukmron sulola a`zolari, yirik davlat arboblari va xarbiy kumondonlarga berilib ular erni tulig`i bilan uzlari boshkarardi va soliqlar yig`ib oladi va bir qismini davlat xazinasiga topshiradi. Iqta erlari xukmron xon avlodlariga, yirik davlat va xarbiy arboblarga berilgan.

XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda yangi feodal er egaligi tanho, kichik xizmatkarlarda beriladigan erlar paydo buldi.

Feodal er egashligining olohida kurinishini vaqf erlar tashkil kilgan.

Sheyboniylar davridagi alohining asosiy kismini dehkonlar, yarim kuchmanchilar va kisman kuchmanchi chorvadorlar tashkil etardi.

Sheyboniylar davlatida dehkonchilikdan tashqari shahar xujaligi xam alohida urin tutadi. Samarqand Buxoro, Toshkent Markaziy Osiyoning siesiy, iqtisodiy, madaniy markazi bulib kolavredi.

Bu davrga kelib iqtisodiy va madaniy yuksalish natijasida Toshkentning makei oshdi. Barakxon madrasasi (Hozirgi mavarounnaxr musulmonlari markazi eki Xistimom), Kukoldosh madrasasi kurildi.

XVI asr shaxarlarida xunarmandchilik rivojlanib, uning maxsuloti keng ommaning talablarini kondirishga karatildi. Sheyboniylar davlatida kuchli rivojlangan xujalik sohasi tukimachilik buldi.

Samarqandda qog`oz ishlab chikarila boshlandi. Qog`oz sifati shunchalar yuqori ediki bu haqda Bobur Jaxonda eng yaxshi qog`oz Samarqandda tayerlangan″, deb egadi.

Sheyboniylar davrida dehkonchilik, xunarchandchilikning umuman, shaxarlar xaetining rivojlanishiga Markaziy Osiyo xonliklarining tashki va ichki savdosh halqaro aloqalarining kengayishi muxim ahomiyatga ega buldi. Markaziy Osiyo xonliklarining Xindiston davlati, Turkiya va Rossiya bilan iqtisodiy xamda diplomatik aloqalari rivojlandi.

Buxoro, Samarkand, Toshkent va boshqa shaxarlarda XVI asrda xaet yuksak darajada bulib, ular siesiy, iqtisodiy markaz bulibgina kolmay, balki madaniy turmush uchog`i xam edi.

Sheyboniylar kuplab yangi binolar kurib, ularni madrasa va machitlar ixtieriga topshirdilar. Faqat Abdullaxon 2 davrida 500 dan ortiq xar xil binolar kurilgan.

Markaziy Osiyoning ijtimoyi-siesiy xaetida bu davrda xar xil darvishlar uyushmalarini birlashtirgan sufiylik muxim urin egalladi. Bular orasida g`oyat katta ta`sirga ega bo`lini Muxammad Baxuaddin Naqshbandiy insonni mehnatga va halollikka chaqirdi. U: ″Dil va eru, dast ba kor″, ya`ni: ″Imoningni dilga er tutub, ko`ngilni ishdan ayirma,″-deydi.

Bu davrda hirotlik Binoiy fors tilida, Muxammad Solih turk tilida Shayboniyxon to`g`risida tarixiy badiiy asarlar yaratdi.

O`sha davrdagi tarixchilardan Hofiz Tanish Buxoriy fors- tojik tilida ″Abdullnoma″ asarini yaratdi. XVI asr boshlarda Bobur tomonidan yaratilgan″Boburnoma″(1526-1530yy) asari jahonshumul tarixiy ahamiyatga egadir.

XVI asr boshlarida Dashti-Qipchoq o`beklarining Movarouunahrga kirib kelishi bilan o`zbek xalqi ajdodlariga yana bir qancha qabilalar kelib qo`shildi va ″O`zbek″ degan nomga ega bo`ldi.

XVI asrning oxrlaridan, aniqrog`i 1599 yildan boshlab Markaziy Osiyoda yangi sulola Ashtroxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sululoning asoschisi Chingiziylar avlodidan bo`lgan Jonibek Sulton edi. Uning ajdodlari Oltin O`rda inqirozidan keyin Astraxonga hukmronlik qilinshgan.

1599-1605-yillarda Buxoro taxtiga Jonibek Sultonning o`rtancha o`gli Boqimuhammad o`tirdi. 1605-yilda Boqimuhammad vafotidan so`ng taxtga uning ukasi Valimuxammad o`tirdi. uning davrida beklarning o`zaro urushlari ko`payib ketdi. 1611 yilda Valimuxammadning jiyani Imomqulixon(Boqimuxammadning o`g`li) amakisini taxtdan ag`darib o`zi o`tirdi (1611-1642 ). Imomqulixon davlatini birmuncha kengaytirishga mufaffaq bo`ldi.

Immqulixon ko`chmanchilarga qarshi muvaffaqiyatli kurashlar olib bordi. uning hukmronlik davri Buxoroda xon hokmniyatining nsibatan kuchayish davri bo`ldi.

1642-1645 yillarda Imamqulixonning ukasi Nodir muxammad taxtda o`tirdi. Lekin uning seesatidan norozi feodal zodagonlar fitna uyushtirib uni taxtdan ag`dardilar va o`g`li Abdulzizonni xon qilib kutardilar. uning davrida Xiva bilon uzoq urushlar olib borildi, bu urushlar mamlakat haetiga qattiq ta`sirko`rasatdi.

1680-yilda taxtga o`tirgan Abdulazizxonning ukasi Subxonqulixon davrida xivaliklarning hujimlariga birmuncha barham berildi. Lekin bu davrda ham mamlakatda ichki tartibsizliklar hukm surardi. 1702-yilda Subxonqulixon vafot etib o`rniga Ubaydullaxon taxtga o`tirdi(1702-1711) Ubaydullaxon feodallarning o`zboshimchiligiga chek qo`yishga, markaziy hokimniyatni kuchaytirishga harakat qilgan suo`ngi Ashtarxtoniylardan edi. Lekin u 1711 yilda uyushtirilgan fitnada o`ltirildi. Taxtga Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzxon o`tiradi (1711-1747) Abulfoyizxon davrida markaziy

hokimniyat o`z ahamiyatini yana yo`qata berdi. Uning davrida mamlakatni boshqarish mang`it urug`lvari tomanidan qo`llab-quvvatlangan va feodallar orasida obruyga ega bo`lgan Muxammad hakimbiy qo`liga o`ta boshladi.

1740-yilning boshlarida mamlakatga Eron shohi Nodirshoh 9ujum qilib xonlik eronlikka katta soliqlar to`lab turiushga majbur bo`ldi. Bu davrda Muxammad Hakimbiyning mavketi yanada oshdi. 1747-yilda Abulfayz vafot etdi. Bundan so`ng Abdulmumminning va Ubaydulla III ning qisqa vaqtlik hukmronligidan so`ng Ashtroxoniylar suloloasi hukmronligi tugadi.

1753-yilda mang`itlardan chiqqan Muxammad Hakimboyning o`g`li Muxammad Rahim amir unvoni bilan taxtni egalladi va u 1920 yilga qadar hukm surgan mangitlar sulolosining asoschisi bo`ldi.

Ashtraxoniylar hukmronligi davri siesiy taraqoqlikning avjiga chiqqan davri bo`ldi. Shayboniylar davriga qaraganda ashtroxoniylar davrida mahalliy beklarning o`shboshimchaliklari ancha kuchaydi.

Mamlakat viloyat va tumanlarga bo`lingan bo`lib hokimniyat tepasida xon turardi. davlatdagi eng martabali lavozm otaliq edi.

Mamlakatda o`zaro urushlar tufayli hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi uchun etarli shart-sharoit yo`q edi.

Lekin, shunga qarmasdan, xalq o`z hunarini va imkoniyatlarini saqlab qoldi.

Bu davrda Markaziy Osiyo Rossiya, Hindiston, Eron, Afg`oniston, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo alohalarini olib bordi.

XVII-XVIII asrda me`morchilik sohasida bir muncha siljishlar ro`y berdi. Samarkandta yirik feodallardan biri Yalantuyshbiy bo`yrug`i bilan XVIII asrda Sherdor va Tillakori madrasalari qurilgan.

Buxoroda Abdullazizxon madrasisi qurildi. Badiiy adabiet va trix ilmi sohasida bir muncha muvaffikiyatlar ko`zga tashlanadi. XVII asrning boshida ijod qilgan Sayido Nasafiy bu davrning yirik shoirlaridan edi.

tarixchtilardan Mah9mud ibn Vali ″Axborotlar asosida sirlar dengizi″ asarini, Muxammad ibn Buxariy ″Ubaydullonoma″ asarini ezdi.

Ashtroxoniylar davrida feodallar o`rtasidagi o`zaro urushlar haddan zied keskinlashib ketdi. XVIII asrning boshlarida (birinchi choragida) yuqaridagi sisesiy voqealar, xonavoyranlik, o`zaro urushlar Markaziy Osiyo hududida uchta mustaqil xonlikning paydo bo`lishi bilan yakunlanadi.

Muxammad Rahimboy hukmronligi davridan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb atala boshlandi. Muxammad Rahimboy savdo va er egaligi bilan oloqalar bo`lgan feodallar manfaatiga mos ravishda markazlashtirish siyosatini amalga oshirdi.

1758 yilda 24 martda Rahimboy vafotidan so`ng Buxoro taxtiga o`tirgan Donielbiy davrida yirik er egalarining markaziy hokimniyatga qarshi kurashi yana avj olib ketdi.

1784-yilda Buxoroda quzgolon kutarilib, qo`zg`olon jaraenieda mingga yaqin kishi halok bo`ldi, natijada Danielbiy hokimniyatni shahar aholisi orasida obro`liroq bo`lgan o`z o`g`li Shohmurodga topshirishga majbur bo`ldi.

1785-1800-yillarda hukmdorlik qilgan Shohmurod davrida to`rtta islohot: moliya, sud, ma`muriy va harbiy islohatlar o`tkazildi.

Donielboy va o`ning o`g`li Shohmurod hukmdorlik qilgan davrda Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlandi. Shohmurodning vorisi Amir Haydar (1800-1826) davrida ichki nizolar va kushni mamlakatlar bilan ziddiyatlar yana la ko`chaydi.

Amir Haydar vafotidan keyin 1826-yilda Buxoro taxtiga uning uchunchi o`g`li nasrullo chiqdi. U 1860 yilgacha hukmdorlik qildi. Nasrullo nihoyatda beshafqat bo`lganligi uchun ham xalq orasida ″Kassob amir″ deb ataldi.

Amir Nasrullo o`z hukmronligini Buxoro amirligidagi feodal tarqoqlikni to`xtatish uchun kurashdan boshladi.

Shu bilan birga amir Nasrullo ko`shni Qo`qon va Xiva xonliklariga qarshi ham uzluksiz urushlar olib bordi.

XIX asrning boshlarida Zarafshon va Qashkadare voholaridan tashqari surxondarie viloyati, hozirgi Tojikiston hududidagi Hisor, Ho`jand, Panjikent va Zarafshan daresining yuqari oqimi, janubiy Turkistonning murg`obogacha bo`lgan barcha erlari ham buxoro amirligiga kirar edi.

Buxoro amirligi aholisining soni XIX asr boshlarida salkam ikki million kishiga, Buxoro shahrida esa 60 ming kishiga etib bordi.

Samarkandda 50 ming aholi yashar edi.

Qishloq ho`jaligining bosh tarmog`i sug`orma dehkonchilik bo`lib, asosan boshoqli ekinlar ekilardi. Amirlikda aholidon hiroj, zakot qabi asosiy soliqlar olinardi.

XVII asr Buxoro xonligida iqtisodiy va siesiy tushkunlik kuchaygan davrda Fargona vohasi xonlikdan alohida o`lka sifatida ajralib chiqdi. XVIII asrning boshlarida,17710 yilda o`zbeklarning ming urug`idang chiqqan Shohruhbiy Qo`kon xonligiga asos soldi. XIX asrning birinchi yarmiga kelib Qo`qon xonligiga Toshkent, Turkiston, O`rtatepa, Ho`jand ko`shib olindi.

Qo`qon XIX asrning birnchi yarmida shimolda Rossiya bilan: g`arbda Xiva va Buxaro bilan: janubda Qoratepa, Darboz va Qo`lob bilan sharqda Sharqia` Turkiston bilan chegarodosh edi.

Qo`qon xonligi aholisining soniXIX asr o`rtalarida 3 million ga yaqin edi.

XIX asr o`rtalarida Qo`qon xonligida ko`pgina shaharlar bo`lib, ular orasida Qo`qon, Toshkent, Andidjon, Marg`ilon, Ho`jand, O`sh, Chimkent, Turkiston yirik siesiy iqtisodiy, madaniy va harbiy markazlar hisoblanardi. Xonlikning poytaxti Qo`qonda 80 mingga yaqin aholi yashardi. 60 mingga yaqin aholi yashaydigan Toshkent o`z ahamiyati jihatidan xonlik poytaxtidan keyin ikkinchi o`rinda turardi.

Amudariening qo`yi oqimida joylashgan Xorazm qadimiy dehkonchilik markazalaridan biri hisoblanadi.

XVI asr boshida Xorazm muxammad Shayboniyxon davlati tarkibiga kiritildi.

1510 yilda Shoyboniyxon vafotidan keyin Xorazm Eron shohi Ismoil Safoviy hukmronligi ostiga tushib qoldi. 1512 yilda bu erda yana Dashti qipchoq vakillaridan bo`lgan Elborisxon Xorazm taxtni egalladi va Xorazm xonligi paydo bo`ldi.

XVII asrning birinchi yarmida Arab Muxammad hukmdorligi davrida xonlikning poytaxti Urganich shaxridan Xiva shahriga kuchirildi.

XVIII asrning boshida Rossiya davlati Xiva xonligini o`z ta`siriga bo`ysundirishga urinib ko`rdi. Shu maqsadda Rossiya podshosi Petr I 1714-1717 yillarda A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida ekspeditsiya uyushtirdi, lekin u muvaffaqmiyatsiz tugadi.

VVIII asr o`rtalarida Xiva xonligida seiesiy parokandalik avjiga chiqdi va XVIII asrning 60 yillarida Xiva xonligida hokimniyatni o`zbek qo`ng`irotlari asta sekin o`z qo`llariga ola boshladilar.

1806-1825-yillarda hukmronlik qilgan Muxammad Rahim I Xiva xonligini birlashtirishni nohoyasiga etkizadi.

**TAYaNCh TUShINChALAR:**

Abulxayrxon, Shayboniyxon, Bobur, Ubaydulla Sultan, AbdullaxonII, ashtraxoniylar, Xiva inoqlari va Qo`ng`irotlari, Qo`qon xonligi.

**ADABIETLAR:**


1. I.Karimov Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamalkatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T. “O`zbekiston” 2005.
2. I.Karimov “Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edilar”. T.2005
3. O`zbekiston mustaqil taraqiet yo`lida. T. 2004
4. Gulomov X.G. Tatibaev A.S. “Tsentarl`naya Aziya i mirovaya istoriya”. T. 2004.
5. Tarix ortga qaytmaydi. (tuplam) T. 2004
6. Istoriya Uzbekistana T. 2004
7. Sharipov R.X. Muxiddinova F. “O`zbekiston halqining siesiy-huquqiy ta`limotlari tarixidan. (XIX asr oxirlari XX asr boshlari) T. 2004
8. SD. “O`zbekiston-2000” multimedia-ma`lumotnomasi
9. SD. “Barkamol avlod orzusi” 5 fil`m
10. SD. “Amir Temur. Shaxsiyat. Davlat. Reneseans” Multimediya-komusi
11. SD. “Tsivilizatsiyaning yaratilishi”
12. SD. “Al-Farg`oniy, Al-Beruniy”

**8-MAVZU. ChOR ROSSIYaSINING TURKISTONDA YuRITGAN MUSTAMLAKAChILIK SIESATI VA UNGA KARShI XALQ MILLIY OZODLIK KURAShLARI. JADIDChILIK**

REJA:

1. Chor Rossiyasining O`rta Osiyoni bosib olishi va uni boshqarishning mustamlaka tizimi
2. Chorizmning Turkistonda iqtisodiy hukmronlmikni amalga oshirish sohasidagi siyosati.
3. Chorizmning Turkistonda madaniy va ma`rifiy sohadagi siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.
4. Milliy-ozodlik xarakatining boshlanishi va uning bosqichlari
5. Jadidchilik xarakati.

Rossiya mamlakatining O`rta Osiyo bilan muntazam aloqalari Shaybaniylar davrida boshlangan edi. XVII asr davomida Rossiya bilan O`rta Osiyo xonliklari orasida elchilar ayirboshlab turish qizgin amalga oshirilgan bo`lsa da, lekin bu davrda rasmiy tarzda biron-bir olaqalar o`rnatishga erishish mumkin bo`lmadi.

Petr I ning rus taxtiga o`tirishidan boshlab Rossiya bilan O`rta Osiyo xonliklari o`rtasida aloqalarining yangi bosqichi boshlandi.

Petr I ning 1717 yil knyaz` Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga junatgan ekspeditsiyasining qismati fojali to`gadi. Oqibatda Rossiyaning O`rta Osiyo tomon siljib borishi yuz yilga kechikdi.

Lekin bu davrda Rossiya imperiyasining chegeralari uch yo`nalishda-Sibir`, Zakovkaz`e, va O`rta Osiyo yo`naloishlarida to`xtovsiz asta-sekin kengayib bordi.

XVIII asr o`rtalariga kelib, O`rta Osiyo va Qozog`iston shimolida Irtish yuqari aqimidan Urol daresigacha cho`zilib ketgan harbiy chiziqlar yarim halqasi vujudga keldi. XIX asr o`rtalariga kelib esa butun Qozog`iston dalitlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi.

1847 yilda Sirdarie quyi oqimida Raim (hozirgi Orol) mustahkamlangan manzilgohiga asos somoniy Xiva va Buxaroga rus qo`shinlari hujimining boshlang`ich nuqtasi bo`lib qoldi.

XIX asr birinchi yarimida rus ip gazlama sanoatining rivojlanishi bilan O`rta Osiyoning sotish bozori sifatidagi ahamiyati ortdi.

Rossiyaning O`rta Osiyo xonliklari bilan savdosi tez sur`atlar bilan o`sib bordi va XIX asr o`rtalariga kelib, Qo`qon, Xiva va Buxaro Rossiyaning Osiyodagi asosiy savdo-sotiq sheriklari, binobarin rus sanoat tovarlarining asosiy iste`molchilari bo`lib qoldi.

50-60yillarda Rossiyaning tashqi aloqalarida sodir bo`lgan voqealar Rossiyaning O`rta Osiyoni istolo qilish jaraenini jadallashtirdi.

XIX asr birinchi yarimida Angliya hamO`rta osie masalasida o`z siyosatini ancha faollashtirgan edi. masalan Ost. Xindiston kompaniyasi razvedkachilari O`rta Osiyoga kelib bu erdagi mahalliy davlatlar hokimlarini Angliya bilan hamkorlik qilishga undab bu mamlakatlarga boriladigan yo`llarni o`rgandilar.

1824 yilda Murkfort missiyasi, 1831 yilda Berns missiyasi ana shu maqsadlarda amalga oshirilgan edi. 184 yilda inglis josuslari polkovnik Stoddart va mayor Konolli Buxaro amiri Nasrullo buyrug`i bilan qatl etildi. Inglizlar O`rta Osiyo xonliklariga boriladigan yo`lda joylashgan Afg`onistonda berkinib olishga intildilar, natijada 1838-1842 yillarda ingiz-afgon urushi kelib chiqdi, bu urush inglizlar uchun muvaffakiyatsiz tugadi.

Shu bilan birga Ost-Xindiston kompaniyasining O`rta Osiyo xonliklari bozorlaridan Rossiyani siqib chiqarichga zo`r berib o`rinishi ham Rus hukmron doiralarini qattiq talovishga soldi.

1855-1857 yillarda Krim urushidagi mag`lubiyat O`rta Osiyoning Rossiya uchun siesiy va strategik ahamiyatining qanchalik katta ekanligini ko`rsatdi.

Shunday qilib bu siesiy jaraenlar Rossiya tomanidan O`rta Osiyoning bosib olishishini tezlashtirdi. Rossiya 1853 yilda Qo`qonxonligining Sirdarie bo`yidagi qall`asi-Oqmaschitni bosib oldi.

Ayni vaqtda O` O-ng sharqiy chekkalarida ham harakat boshlandi. 1860 yilda To`qmoq va Pishpak (hozirgi Bishkek) shaharlari bosib olindi. Rus qo`shinlarining hujumini to`xtovsiz davom etdi, general Verevkin uo`mondonligidagi qo`shin sharqdan, general Chernyaev qo`mondonligidagi ikkinchi qo`shin g`arbdan siljib borib, bir-biriga yaqinlashdi. general Chernyaev 1864 yilda Turkiston bilan Chimkentni, general Verevkin esa Avlieatani (hozirgi Jambul) qo`lga kiritdi.

General Chernyaev qo`shinlari tomonidan 1865 yil 25 iyunda Toshkentni shturm qilish boshlandi va faqat 27 iyun` kuni gina ruslar shaharni egallashga muvaffaq bo`ldilar.

1867 yil o`rtalarida bevosita Rossiya markaziy hukumatiga bo`ysunuvchi Turkiston general-gubernatorligi tuzildi va biron fon K.P.Kaufman birinchi general-gubernator etib tayinlandi.

1868 yil 15 mayda rus qo`shinlari Samarkadni sungra Kattakurganni egalladi. 1868 yil oxirida Zarabuloq ostonalarida amir Muzaffariddin qo`shinlari tar-mor qilindi, bu esa amirni asoratli talonchilik shartnomasini imzolashga majbur qildi.

Ruslar 1873 yilda Xiva xonligiga xujum qildilar. Xonlikdagi qolqonlik, harbiy texnikaning pastligi bu erda ham ruslarning g`alb kelishiga sabab bo`ldi. Xiva xoni Muxammad Rahimxone Feruz Gandimien shartnamasiga asosan 2200000 oltin so`m tuladi hamda Amudariening u`ng qirgogidagi erlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan mahrum bo`ldi. Shunday qilib, Rossiya o`lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayrongarchiliklar yo`li bilan bosib oldi.

1886 yilda podsho Aleksandr II Turkiston o`lkasini boshqarishning Nizomini tasdiqladi

XIX asrning 90 yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta-Sirdarie, Farg`ona, Samarkand, Ettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uezlarga, uezdlar bo`lislarga, bo`lislar uchastkalarga bo`linib boshqariladigan bo`ldi.

Turkistonning barcha viloyatlarida harbiy gubernatorlik boshqarmalari ta`sis etildi. Harbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo`ldi.

Turkiston general-gubernatorligining markazi-Toshkentni boshkaruv 1870 yilga shahar boshqaruvi qoydasiga ko`ra to`ligi bilan podsho ma`muriyati qo`liga o`tdi.

Shunday qilib, Rossiya ulkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayrongarchiliklar yo`li bilan bosib oldi. O`rta Osining katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarufiga o`tdi. Qo`kon xonligi to`gatilib, Xiva xonligi va Buxaro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar.

Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni bosib olishdagi asosiy maqsadi-birinchidan, O`rta Osiyoni Rossiya sanoat korxonalari uchun arzon xom ashe etkazib beradigan manbaga aynaltirish bo`lsa, ikkinchidan, Rossiya sanoat mollari sotiladigan joy sifatida O`rta Osiyo bozorini egallash edi.

Chor Rossiyasi Turkiston U o`lkasini egallagan kunlaridan boshlab o`zining iqtisodiy mustamlakachilik ngiyatlarini amalga oshirishga kirishdi.

Buning uchun,mustamlakachilar, birinchi navbatda O`rta Osiyoda temir yo`llar qurishga kirishdi. 1881-1886 yillarda Krasnovodskiydan Chorjuyga Kaspiyorti temir yo`li qurildi, 1888 yilda bu yo`l uzaytirilib, Samarkandga etkazildi.1906-yilda Toshkent-Orenburg temir yo`li ishga tushirildi.

1912 yilda Farg`ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo`l orqali bog`landi.

Chorizm ma`murlari O`rta Osiyoda, ayniqsa, Farg`ona aodiysida paxtachilikni jadal rivojlantirishga kirishdilar. Rossiyadan turli firma va birjalar Turkistonga kirib kelib, ular bu erda iqtisodiy haetga o`z ta`sirigni kuchaytirib bordi.

Paxta sifatini yaxshilash maqsadida o`lkada paxtaning Amerika navlarini etishtirish yo`lga qo`yildi.

Turkiston iqtisodietidan ko`proq foyda ko`rish maqsadida mustamlakachilar o`lkaning o`zida xom ashiega dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashqil etishga kirishdilar. 1900 yilgacha Turkistonda 170 dan ortik sanoat korxanolari qurilib ularning 80 protsentini paxztaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi.

Rossiyadan taier sanoat mahsulotlarining kirib kelishi asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelaetgan aholani xonavayron etdi.

O`lkaning ko`plab unumdor erlariga paxta ekilishi boshoqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o`zini oziq-ovqot mahsulotlari bilan ta`minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqot masalasida Rossiyaga qaram bo`lib qoldi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biri Turkistono`lkasini ruslashtirishdan iborat bo`ldi. Podsho hukumati ko`p minglab ersiz dehkonlarni, ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko`chirib keltirishi bu maqsadga erishida katta o`rin tutadi.

Chorizmning Turkistondagi madaniy ma`rifiy ishlari ham mustamlakachilik siyosatiga to`la buysundirildi Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Evropa turmush tarizini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. 1884 yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi. Eski maktablarda o`kish-uqitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko`rilmadi. Maxalliy aholaniyang yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham hech qanday tadbir amalga oshirilmadi.

